

XII. KORXONA VA TASHKILOTLAR FAOLIYATINING UMUMIY TA'RIFI

(fermer va dehqon xo'jaliklarisiz)

(Adliya boshqarmasi huzuridagi Davlat xizmatlari markazlari
ma'lumotlar bazasi asosida shakllantirildi)


Korxona va tashkilotlar yagona davlat registri ma'lumotlariga ko'ra, 2024- yilning 1- iyul holatiga ro'yxatga olingan yuridik shaxslar soni (fermer va dehqon xo'jaliklarisiz) 41 991 taga etdi, shundan faoliyat ko'rsatayotganlar soni 26 347 tani yoki jami ro'yxatga olingan yuridik shaxslarning 62,7 % ni tashkil qildi.

Ro'yxatdan o'tgan korxona va tashkilotlarning asosiy ulushi Namangan shahri (32,3 %), Chust (8,2 %), Uchqo'rg'on (6,6 %) va Uychi (6,4 %) tumanlari hissalariga to'g'ri keladi.

Ro'yxatga olingan va faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlarning hududlar bo'yicha taqsimlanishi (2024- yilning 1- iyul holatiga)

	Ro'yxatga olingan		Faoliyat ko'rsatayotgan	
	birlik	Jamiga nisbatan ulushi, % da	birlik	Jamiga nisbatan ulushi, % da
Viloyatjami	41 991	100,0	26 347	100,0
Namangansh.	13 575	32,3	8 065	30,6
Mingbuloq	2 009	4,8	1 284	4,9
Kosonsoy	2 620	6,2	1 595	6,1
Namangan t.	2 591	6,2	1 646	6,2
Norin	2 162	5,1	1 395	5,3
Pop	2 657	6,3	1 974	7,5
To'raqo'rg'on	2 545	6,1	1 703	6,5
Uychi	2 671	6,4	1 533	5,8
Uchqo'rg'on	2 760	6,6	1 857	7,0
Chortoq	2 673	6,4	1 655	6,3
Chust	3 429	8,2	2 249	8,5
Yangiqo'rg'on	2 299	5,4	1 391	5,3

Ro'yxatdan o'tgan sub'yektlarning hududlar bo'yicha ulushi, % da
(2024- yilning 1- iyul holatiga)



- | | | | |
|----------------|-------------|-----------------|-----------------|
| ■ Namangan sh. | ■ Mingbuloq | ■ Kosonsoy | ■ Namangan t. |
| ■ Norin | ■ Pop | ■ To'raqo'rg'on | ■ Uychi |
| ■ Uchqo'rg'on | ■ Chortoq | ■ Chust | ■ Yangiqo'rg'on |

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ro'yxatga olingan korxonalar va tashkilotlarning asosiy qismi savdo (jami ro'yxatga olingan yuridik shaxslarning (33,1 %)), sanoat (19,9 %), qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi (8,2 %) hamda qurilish (6,5 %) sohalariga to'g'ri keladi.

Ro'yxatdan o'tgan tijorat korxonalari iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha
(2024- yilning 1- iyul holatiga)

	Ro'yxatga olingan		Faoliyat ko'rsatayotgan	
	birlik	Jamiga nisbatan ulushi, % da	Birlik	Jamiga nisbatan ulushi, % da
Jami	37 376	100,0	22 037	100,0
<i>shu jumladan:</i>				
qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	3 433	9,2	1 699	7,7
sanoat	8 363	22,4	4 509	20,5
qurilish	2 705	7,2	1 428	6,5
savdo	13 875	37,1	8 695	39,4
tashish va saqlash	1 456	3,9	940	4,3
yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	2 053	5,5	1 297	5,9
axborot va aloqa	588	1,6	356	1,6
sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	801	2,1	620	2,8
boshqa turlari	4 102	11,0	2 493	11,3


Ro'yxatdan o'tgan tijorat korxonalari soni
(tashkiliy-xuquqiy shakli bo'yicha 2024- yil 1- iyul holatiga ko'ra, birlikda)

28 947		1 547		182	
Mas'uliyati cheklangan jamiyat		Xususiy korxona		Ishlab chiqarish kooperativi	
6 322		24		354	
Xususiy korxona		Aksiyadorlik jamiyat		Boshqalar	

Mas'uliyati cheklangan jamiyat



Xususiy korxona




Mas'uliyati cheklangan jamiyat

Mas'uliyati cheklangan jamiyat deb, bir yoki birnecha shaxs tomonidan ta'sis etilgan, ustav fondi (ustav kapitali) ta'sis xujjatlari bilan belgilab qo'yilgan miqdorlardagi ulushlarga bo'lingan jamiyat tan olinadi. Mas'uliyati cheklangan jamiyatning ishtirokchilari uning majburiyatlari bo'yicha javobgar bo'lmaydilar va jamoat faoliyati bilan bo'lib zarar uchun o'zlari qo'shgan hissalarini qiymati doirasida javobgar bo'ladilar.

Jamiyatning o'z hissasini to'la qo'shmagan ishtirokchilari jamiyat majburiyatlari bo'yicha har bir ishtirokchi hissasining to'lanmagan qismining doirasida solidar javobgar bo'ladilar. Mas'uliyati cheklangan jamiyatning firma nomi jamiyatning nomini, shuningdek "mas'uliyati cheklangan" degan so'zlarni o'z ichiga olishi kerak.

Oilaviy korxonalar soni

(2024- yil 1- iyul holatiga ko'ra, birlikda)




Ro'yxatdan o'tgan oilaviy korxonalar soni 2024- yil 1- iyul holatiga ko'ra 1 547 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning mos davriga nisbatan olganda 94 taga yoki 6,5 foizga oshganligini ko'rish mumkin.

Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalar soni 996 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning mos davriga nisbatan olganda 1 taga yoki 99,9 foizni tashkil etdi.

2024- yil yanvar-iyun oylarida yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalar soni 136 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning mos davriga nisbatan 43 taga yoki 46,2 foizga oshganligini ko'rish mumkin.

**Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalarining
xududlar kesimida soni**
(2024- yil 1- iyul holatiga ko'ra, birlikda)




Mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni
(2024- yil 1- iyul holatiga ko'ra, birlikda)


Ro'yxatdan o'tgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni 2024- yil 1- iyul holatiga ko'ra 28 947 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan olganda 1 996 taga yoki 7,4 % ga oshganligini ko'rish mumkin.

Faoliyat ko'rsatayotgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni 17 334 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan olganda 389 taga yoki 97,8 % ni tashkil qilganligini ko'rish mumkin.

2024- yil yanvar-iyun oylarida yangi tashkil etilgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni 1 948 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 306 taga yoki 86,4 % ni tashkil qilganligini ko'rish mumkin.




Faoliyat ko'rsatayotgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlarining hududlar kesimidagi soni (2024- yil 1- iyul holatiga ko'ra, birlikda)



2024- yil 1- iyul holatiga ko'ra mas'uliyati cheklangan jamiyatlarning asosiy qismi Namangan shahri 5 700 ta (jamidagi ulushi 32,9 %), Pop 1 321 ta (7,6 %), Chortoq 1 241 (7,2 %), Uchqo'rg'on 1 239 ta (7,1 %), Chust 1 125 ta (6,5 %), Kosonsoy 1 094 ta (6,3 %), Uychi 1 051 ta (6,1 %), Namangan 1 030 ta (5,9 %), To'raqo'rg'on 958 ta (5,5 %) xissasiga to'g'ri keladi.

Aksincha eng kam Mingbuloq 722 ta (4,2 %), Yangiqo'rg'on 895 ta (5,2 %) tumanlari xissalariga to'g'ri keladi.


Faoliyat ko'rsatayotgan qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi korxonalari jamiga nisbatan ulushi, foizda




Dehqonchilik va chorvachilik, ovchilik va bu sohalarda xizmat ko'rsatish

O'rmon xo'jaligi

Baliqchilik xo'jaligi



Faoliyat ko'rsatayotgan sanoat korxona va tashkilotlari
soni bo'yicha ma'lumotlar, birlikda




Ro'yxatga olingan faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlarning
iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi
(2024- yil 1- iyul holatiga)

	Ro'yxatga olingan		Faoliyat ko'rsatayotgan	
	birlik	Jamiga nisbatan ulushi, % da	birlik	Jamiga nisbatan ulushi, % da
Jami	41 991	100,0	26 347	100,0
shujumladan:				
qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	3 461	8,2	1 727	6,5
sanoat	8 366	19,9	4 512	17,1
qurilish	2 721	6,5	1 443	5,5

	Ro'yxatga olingan		Faoliyat ko'rsatayotgan	
	birlik	Jamiga nisbatan ulushi, % da	birlik	Jamiga nisbatan ulushi, % da
savdo	13 880	33,1	8 697	33,0
tashish va saqlash	1 456	3,5	940	3,6
yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	2 055	4,9	1 299	4,9
axborot va aloqa	622	1,5	388	1,5
sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	890	2,1	704	2,7
boshqa turlari	8 540	20,3	6 637	25,2


Faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlarning
iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, % da
(2024- yilning 1- iyul holatiga)




Korxona va tashkilotlarning umumiy sonida faoliyat ko'rsatayotgan sub'ektlarning ulushi 62,7 % ni, shu bilan birga jami korxona va tashkilotlarning umumiy soniga nisbatan faoliyat ko'rsatmayotganlarning ulushi 37,3 % ni tashkil etganligini ko'rsatmoqda, bu ko'rsatkich yil boshiga nisbatan taqqoslanganda 26,8 foiz oshgan.

**Korxona va tashkilotlarning umumiy sonidan faoliyat
ko'rsatayotganlar va faoliyatsizlarning ulushi, % da**

01.07.2023 yil



01.07.2024 yil




Faoliyatsizlar

Faoliyat ko'rsatayotganlar

2024- yil 1- iyul holatiga 22 037 ta tijorat shaklidagi korxonalar va tashkilotlar faoliyat ko'rsatayotgan bo'lib, shundan xususiy korxonalar – 3 471 ta, oilaviy korxonalar – 996 ta, mas'uliyati cheklangan jamiyatlar – 17 334 tani va 236 tani boshqa tijorat korxonalari tashkil etadi.

**Faoliyat ko'rsatayotgan yuridik shaxslar va xo'jalik yurituvchi
sub'ektlarning tashkiliy huquqiy shakllari bo'yicha
taqsimlanishi, birlikda**


01.07.2023 yil 01.07.2024 yil



2024- yil yanvar-iyun oylarida jami 2 251 ta yangi korxonalar va tashkilotlar ro'yxatga olingan bo'lib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 88,6 foizni tashkil etdi.

Yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlarning asosiy qismi Namangan shahri (696 ta), Uchqo'rg'on (202 ta), Pop (177 ta), Mingbuloq (157 ta), Chust (154 ta), Kosonsoy va Yangiqo'rg'on (153 tadan), Chortoq (138 ta), Norin (128 ta), To'raqo'rg'on (110 ta) tumanlariga to'g'ri keladi. Eng kami esa, Namangan (81 ta) va Uychi (102 ta) tumanlariga to'g'ri keladi.


Savdo sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar to'g'risida ma'lumotlar, *birlikda* (2024- yilning 1- iyul holatiga)



Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni, *birlikda* (2024- yilning 1- iyul holatiga)




**Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish bo'yicha faoliyat ko'rsatayotgan
korxona va tashkilotlar soni, birlikda**
(2024- yilning 1- iyul holatiga)




**Axborot va aloqa sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va
tashkilotlar to'g'risida ma'lumot, birlikda**

■ 2023 y. ■ 2024 y.




Hududlar bo'yicha yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlarning soni, birlikda (2024- yiln yanvar-iyun oylarida)




Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlarning ulushi savdoda 37,8 %, sanoatda 19,8 %, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida 9,3 %, qurilishda 4,1 % ni tashkil etadi.

Yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, % da (2024- yil yanvar-iyun oylarida)



**2024- yil yanvar-iyun oylarida yangi tashkil etilgan oilaviy
korxonalarining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, % da**



2024- yil 1- iyul holatiga viloyatimizda faoliyat ko'rsatayotgan kichik tadbirkorlik sub'ektlarining soni 21 877 tadan ortiqni tashkil etdi. Bu ko'rsatkich 2023- yil mos davriga nisbatan 94,9 % tashkil qilgan.


Faoliyat ko'rsatayotgan kichik tadbirkorlik sub'ektlarining asosiy qismi, ya'ni 6 718 tasi (jami sub'ektlarning 30,7 %) Namangan shahriga, 1 910 tasi (8,7 %) Chust, 1 620 tasi (7,4 %) Pop, 1 580 tasi (7,2 %) Uchqo'rg'on, 1 261 tasi (5,8 %) Uychi tumanlari hissalariga to'g'ri keladi. Eng kam faoliyat ko'rsatayotganlar esa 1 035 tasi (4,7 %) Mingbuloq, 1 092 tasi (5,0 %) Yangiqo'rg'on, 1 141 tasi (5,2 %) Norin, 1 310 tasi (6,0 %) Kosonsoy tumanlari hissalariga to'g'ri keladi.

**Faoliyat ko'rsatayotgan kichik tadbirkorlik sub'ektlarining
hududlar bo'yicha soni**

	2023- yil 1- iyul holatiga		2024- yil 1- iyul holatiga	
	birlik	jamiga nisbatan ulushi, % da	birlik	jamiga nisbatan ulushi, % da
Viloyat jami	23 058	100,0	21 877	100,0
Namangan sh.	7 101	30,8	6 718	30,7
Mingbuloq	1 088	4,7	1 035	4,7
Kosonsoy	1 397	6,1	1 310	6,0
Namangan t.	1 417	6,1	1 400	6,4
Norin	1 149	5,0	1 141	5,2
Pop	1 737	7,5	1 620	7,4
To'raqo'rg'on	1 591	6,9	1 425	6,5
Uychi	1 400	6,1	1 261	5,8
Uchqo'rg'on	1 636	7,1	1 580	7,2
Chortoq	1 407	6,1	1 385	6,4
Chust	1 976	8,6	1 910	8,7
Yangiqo'rg'on	1 159	5,0	1 092	5,0

Faoliyat ko'rsatayotgan jami 21 877 ta kichik tadbirkorlik subyektlarining 8 664 tasi (39,6 %) - savdoda, 4 451 tasi (20,4 %) - sanoatda, 1 692 tasi (7,7 %) - qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida, 1 421 tasi (6,5 %) - qurilishda, 1 292 tasi (5,9 %) - yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasida, 934 tasi (4,3 %) - tashish va saqlashda, 616 tasi (2,8 %) - sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatishda, 356 tasi (1,6 %) - axborot va aloqa sohasida shuningdek, 2 451 tasi (11,2 %) - boshqa faoliyat turlari hissalariga to'g'ri keladi. Shundan ko'rinib turibdiki, faoliyat ko'rsatayotgan kichik tadbirkorlik sub'ektlarining asosiy qismi sanoat va savdo faoliyat turlariga to'g'ri keladi. Shuningdek, eng kam ulushi esa axborot va aloqa hamda sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar faoliyat turlariga to'g'ri keladi.


**Faoliyat ko'rsatayotgan kichik tadbirkorlik sub'ektlarining
iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, % da
(2024- yilning 1- iyul holatiga)**



2024- yil yanvar-iyun oylarida jami 2 464 ta kichik tadbirkorlik sub'ektlari yangi tashkil etilgan bo'lib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 85,3 foizni tashkil etgan.

Eng ko'p yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar Namangan shahri (659 ta), Uchqo'rg'on (209 ta), Mingbuloq (192 ta), To'raqo'rg'on (191 ta), Pop (186 ta), Chortoq (181 ta), Kosonsoy (165 ta), Uychi (162 ta) va Chust (141 ta) tumanlariga, eng kam tashkil etilganlari esa, Namangan (101 ta), Norin (138 ta) va Yangiqo'rg'on (139 ta) tumanlariga to'g'ri keladi.

**2024- yilning yanvar-iyun oylarida yangi tashkil etilgan kichik
tadbirkorlik subyektlarining hududlar bo'yicha soni, birlikda**




Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida eng ko'p tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar savdoda (851ta), sanoatda (444 ta), qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida (208 ta), yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda (150 ta) hamda qurilishda (92 ta) tashkil etilgan. Eng kam esa, sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlarda (48 ta), axborot va aloqada (65 ta) tashkil etilgan.

Kichik tadbirkorlik sub'ektlarini qo'llab-quvvatlash asosida ularning ishlab chiqarish faoliyatini samarali tashkil etish bo'yicha ishlar yetarli darajada tashkil etilmaganligi sababli, faoliyat ko'rsatmayotgan kichik tadbirkorlik sub'ektlarining jami ro'yxatga olinganlarning umumiy soniga nisbatan ulushi yuqori bo'lmoqda.

Jumladan, 2024- yil 1- iyul holatiga Namangan viloyatida jami ro'yxatdan o'tgan kichik tadbirkorlik sub'ektlarining umumiy sonida faoliyat ko'rsatmayotganlarning ulushi 41,2 % ni (15 303 ta) tashkil qilgan, ularning soni o'tgan yilning shu davriga nisbatan 3 010 taga ko'paygan.


Hisobot davrida 1 017 ta kichik tadbirkorlik sub'ektlari faoliyati tugatilgan bo'lib, ulardan 649 tasi (jami faoliyati tugatilganlarning 63,8 %) ixtiyoriy tugatilgan.

**Yangi tashkil etilgan kichik tadbirkorlik sub'ektlarining
iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, % da
(2024- yil yanvar-iyun)**



Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar. 2024- yil 1- iyul holatiga faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni 213 tani tashkil etgan bo'lib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 5 taga yoki 97,7 % ni tashkil etdi. Shuningdek, Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalardan 104 tasi qo'shma korxonalar, 109 tasi esa xorijiy korxonalar hisoblanadi.

Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar tarkibida qo'shma korxonalar va xorijiy korxonalar soni, birlikda
(2024- yilning 1- iyul holatiga)



Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarning davlatlar kesimida soni, birlikda
(2024- yilning 1- iyul holatiga)



Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarning asosiy qismi Namangan shahar 91 ta (42,5 %), Pop 23 ta (10,8 %), Chust 19 ta (8,9 %), Kosonsoy 17 ta (8,0) tumanlari hissalariga to'g'ri keladi. Eng kam xorijiy kapital ishtirokida korxonalar Mingbuloq, Norin, Uchqo'rg'on, Chortoq 5 tadan (2,4 % dan) tumanlari hissalariga to'g'ri keladi. Bu esa mazkur hududlarda xorijiy hamkorlar bilan ishlashni, investitsiyalar jalb etish borasida amalga oshirilishi lozim bo'lgan ishlarni yanada rivojlantirishni talab etadi.

Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarning hududlar bo'yicha soni va ulushi (2024- yilning 1- iyul holatiga)

	birlik	Jamiga nisbatan ulushi %da
Viloyatjami	213	100,0
Namangan sh.	91	42,5
Mingbuloq	5	2,4
Kosonsoy	17	8,0
Namangan	9	4,2
Norin	5	2,4
Pop	23	10,8
To'raqo'rg'on	10	4,7
Uychi	14	6,6
Uchqo'rg'on	5	2,4
Chortoq	5	2,4
Chust	19	8,9
Yangiqo'rg'on	10	4,7


Faoliyat ko'rsatayotgan 213 ta xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarni iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha olib qaraydigan bo'lsak, 95 tasi (44,6 %) sanoat, 52 ta (24,4 %) savdo, 12 ta (5,7 %) qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida, 12 tasi (5,7 %) qurilish, 6 tasi (2,8 %) sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish, 5 tasi (2,3 %) tashish va saqlashda, 3 tasi (1,4 %) yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda hamda 22 tasi (10,3 %) boshqa faoliyat turlari hissalariga to'g'ri keladi.

Shundan ko'rinib turibdiki, faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarning asosiy qismi sanoat, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi va savdo faoliyat turiga to'g'ri keladi. Shuningdek, eng kam ulushi esa axborot va aloqa, tashish va saqlash hamda yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar faoliyat turlariga to'g'ri keladi.

**Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarning
iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha soni va ulushi**
(2024- yilning 1- iyul holatiga)

	birlik	Jamiga nisbatan ulushi, %da
Jami	213	100,0
<i>shu jumladan:</i>		
qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	12	5,7
sanoat	95	44,6
qurilish	12	5,7
savdo	52	24,4
tashish va saqlash	5	2,3
yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	3	1,4
axborot va aloqa	6	2,8
sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	6	2,8
boshqa turlari	22	10,3

**Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy
kapital ishtirokidagi korxonalarning ulushi, % da**
(2024- yilning 1- iyul holatiga)



2024- yil yanvar-iyun oylarida xorijiy kapital ishtirokidagi ro'yxatdan o'tgan yangi korxonalarning soni 25 tani tashkil qilgan. Bu ko'rsatkich o'tgan yilning mos davriga nisbatan 1 taga yoki 4,2 foizga ko'paygan.

Bunda, Xitoy Xalq Respublikasi – 10 ta, Janubiy Koreya – 4 ta, Rossiya Federatsiyasi, Qozog'iston – 3 tadan, Tojikiston, Qirg'iziston – 2 tadan, Turkiya, Hindiston, Pokiston Islom Respublikasi – 1 tadan yangi korxonalar ro'yxatdan o'tgan.


Viloyatdagi 25 ta yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarning asosiy qismi Namangan shahar (13 ta), Chust (3 ta), Kosonsoy, To'raqo'rg'on (2 tadan), Mingbuloq, Pop, Uychi, Uchqo'rg'on va Yangiqo'rg'on (1 tadan) tumanlari hissalariga to'g'ri keladi. Namangan, Norin va Chortoq tumanlarida xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar tashkil etilmagan.

Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarning hududlar kesimidagi soni va ulushi (2024- yil yanvar-iyun)


	birlik	Jamiga nisbatan ulushi, % da
Viloyatjami	25	100,0
Namangansh.	13	52,0
Mingbuloq	1	4,0
Kosonsoy	2	8,0
Namangant.		
Norin		
Pop	1	4,0
To'raqo'rg'on	2	8,0
Uychi	1	4,0
Uchqo'rg'on	1	4,0
Chortoq		
Chust	3	12,0
Yangiqo'rg'on	1	4,0

Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarni iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'radigan bo'lsak, asosan savdoda 9 ta, sanoatda 5 ta, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi, axborot va aloqa 3 tadan, boshqa xizmatlar ko'rsatishda 2 ta, qurilish, tashish va saqlash, yashash va ovqatlanish 1 tadan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar yangi tashkil etilgan.

Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha soni, birlikda
(2024- yil yanvar-iyun)



2024- yil yanvar-iyun oylarida yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarning davlatlar kesimidagi soni, birlikda



Oilaviy korxonalar. Yuridik shaxs sifatida davlat ro'yxatidan o'tgan oilaviy korxonalar soni, 2024- yil- 1- iyul holatiga 1 547 tani tashkil etib, ulardan 996 tasi yoki 64,4 % faoliyat yuritadi. Bu ko'rsatkich o'tgan yilning mos davriga nisbatan davlat ro'yxatidan o'tganlarning umumiy soniga nisbatan o'rtacha 6,5 % ga oshganligini ta'kidlash mumkin.